

1867–1917-YILLAR TURKISTONIDAGI ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIK
SIYOSATINING TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI

Rahimjonova Nozima

Oriental universiteti 3-bosqich talabasi.

S.Axmedov

Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15622869>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1867–1917-yillar oralig'ida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy islohotlar tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ushbu davrga oid normativ-huquqiy hujjatlar, statistik to'plamlar, matbuot nashrlari, rus va mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan ilmiy va publitsistik asarlar, shuningdek, xorijiy sayohatchilar va sharqshunos olimlar qaydlari o'rganiladi. Shuningdek, mahalliy ziyolilar, jumladan jadidlar ijodida aks etgan mustamlakachilik siyosatiga nisbatan tanqidiy munosabatlar ochib beriladi. Ushbu manbalar Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy o'zgarishlar va milliy uyg'onish harakatlarini kompleks tarzda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, tarixiy manbalar, jadidchilik, siyosiy islohotlar, matbuot, ijtimoiy o'zgarishlar, 1867–1917-yillar.

Kirish. Turkiston tarixining 1867–1917-yillar oralig'i Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy-siyosiy bosib olish va mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu davrda Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining ma'muriy-huquqiy tuzumiga integratsiyalashgan, uning siyosiy boshqaruvi ostida yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllana boshlagan. Bu jarayonlar o'z navbatida, mahalliy jamiyatda chuqur ijtimoiy silkinishlarga, milliy ongning uyg'onishiga va siyosiy faollikning ortishiga zamin yaratgan. Shu jihatdan, Rossiya imperiyasi davrida shakllangan hujjatlar, rasmiy nashrlar, statistik hisobotlar, publitsistik hamda badiiy asarlar mazkur davrning murakkab jarayonlarini o'rganishda muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Asosiy qism. Rossiya imperiyasi Turkistonda o'z boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish uchun ko'plab qonuniy hujjatlarni ishlab chiqdi. Jumladan, 1867-yilda "Turkiston general-gubernatorligi" tashkil etilib, unga Qozon, Orenburg va Sibir guberniyalari orqali turli nizomlar tatbiq qilindi. "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi vaqtinchalik Nizom" (1868) kabi hujjatlar hududni siyosiy va ma'muriy boshqaruv ostiga olishda asosiy rol o'ynadi. Bu hujjatlar Rossiya arxivlarida, xususan Sankt-Peterburg va Moskva arxivlarida, saqlanib qolgan.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida "harbiy vaziyat" omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan, yuzaga kelgan va qoida tarzida "muvaqqat" xususiyatga ega edi. Chunonchi, "Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867-yili "tajriba tarzida uch yilga" joriy qilindi. Bu Nizomda soliq tizimini izga solish maqsadida xo'jalik boshqarmalarini tuzish belgilab qo'yilgan edi.

Undan tashqari, 1868-yilning iyunida “Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari”, “Farg’ona viloyatini boshqarish bo’yicha 1873-yil muvaqqat nizom”, “Amudaryo bo’limini boshqarish bo’yicha 1874-yil 21-may Nizomi” ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi¹.

Davrga oid eng muhim manbalardan yana biri – bu rus ma’murlari tomonidan tayyorlangan statistik to’plamlar va yillik hisobotlardir. “Turkiston viloyatining statistik sharhlari”, “Qishloq xo’jaligi statistikasi” va “Sanitar hisobotlar” kabi hujjatlar mintaqaning demografik holati, iqtisodiy faoliyati, salomatlik va infratuzilmasi haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda bosma nashrlar ham faoliyat yurita boshladi.

Xususan, “Turkiston viloyati gazetasi” (1870-yildan boshlab) rus va ozarbayjon tillarida chiqib, mahalliy voqealar, farmonlar, ijtimoiy-siyosiy yangiliklar haqida xabar berib bordi. Bu nashr tarixiy tahlil uchun muhim birlamchi manba hisoblanadi.

1907-yildan Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetasi chiqa boshladi. 1912-yildan Buxoroda “Buxoroi sharif” nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqa boshlagan bu gazetaning Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo’lgan turklar tilida emas, Navoiy sart tili deb atagan forsiyda chiqishi nafaqat turkistonliklarni, balki xorijdagi ayrim turkshunoslarni o’ylatib qo’ydi.

1914-yildan nashr etila boshlagan “Sadoi Turkiston” jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan nashrlardan biri edi. Uning bosh muharriri Ubaydullaxo’ja Asatillaxo’jaev bo’lib, gazeta ishlariga Munavvar qori va Abduraufzodalar yaqindan yordam berishgan.

Turkistonga qilinadigan harbiy yurishlar davomida rus zobitlari va olimlari mintaqaning tabiiy resurslari, geografiyasi va aholisi haqida maxsus ekspeditsiya materiallarini to’pladilar.

General Skobelev, Kaufman va boshqa arboblardan tomonidan yozilgan hisobotlar, shuningdek, V. V. Bartold, N. I. Veselovskiy kabi sharqshunos olimlarning asarlari bu borada muhim ilmiy va tarixiy qiymatga ega².

Rossiya hukmronligi davrida mahalliy ziyolilar tomonidan yozilgan asarlar ham alohida o’rin tutadi. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munzim kabi jadidlarning maqolalari, dramalari va risolalari o’sha davr Turkistonining ichki ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishda muhimdir. Bu asarlar orqali mahalliy aholining Rossiya siyosatiga bo’lgan munosabati, milliy ong va mustaqillikka intilish holati yoritiladi.

O’zbek adabiyotiga katta hissa qo’shgan jadidlar o’z davrining og’riqli muammolarini chuqur his etgan, xalqni ilmga, taraqqiyotga chorlagan va o’z asarlari orqali ijtimoiy uyg’onish harakatiga xizmat qilgan ziyolilardir. Ularning ijodi millat ko’zini ochishga, o’zligini anglashga, adolat va taraqqiyot yo’lida kurashishga undagan. Jadidlar asarlarida savodsizlik, xurofot, zo’ravonlik, ayollar erksizligi, eskicha tarbiya kabi ijtimoiy illatlar keskin tanqid qilingan. Shu bilan birga, ular ma’rifat, ilm-fan, ayollar huquqlari, milliy uyg’onish, adolat va taraqqiyot g’oyalarini ilgari surganlar.

Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asari orqali yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy me’yorlar muhimligini targ’ib qilgan. U maktab, o’qituvchi va ma’rifatning jamiyat hayotidagi o’rnini chuqur tushuntirib bergan.

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. –T.: 2003.

² Qosimov B. Milliy uyg’onish. –T.: Ma’naviyat, 2002.

Mahmudxo‘ja Behbudiy esa “Padarkush” pyesasi orqali jaholat va adolatsizlikni fosh etib, zamonaviy bilimning ahamiyatini ko‘rsatgan. U yozgan maqolalar va sahna asarlari orqali o‘zbek jamiyatida yangilanish g‘oyalarini yoygan.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zining ilmiy va publitsistik ishlari orqali jadid maktablarini ochish, yangi usulda ta’lim berish va o‘zbek tilini rivojlantirish yo‘lida muhim hissa qo‘shgan. Fitrat esa o‘zining “Sayha”, “Hind ixtiloli tarixi” kabi asarlari va turkum dramalari bilan milliy uyg‘onish g‘oyasini keng yoygan. U ayniqsa, tarixiy va madaniy merosni qadrlash, milliy o‘zlikni anglash masalalarini yoritgan.

Cho‘lpon o‘zining “Kecha va kunduz” romanida o‘zbek xalqining ichki dunyosi, iztiroblari va orzu-umidlarini tasvirlab berdi. Uning she’riyati va nasriy ijodi erkinlik, adolat va milliy uyg‘onish tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan. Abdulla Qodiriy esa “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali o‘zbek adabiyotida realizmga asoslangan yangi bosqichni boshlab bergan. Uning asarlari orqali o‘tmishga tanqidiy nazar tashlangan, jamiyatdagi muammolar san’at orqali ko‘tarilgan.

Rossiya mustamlakachilik siyosatining xalqaro miqyosda qanday qarshilanganini tushunishda xorijiy sayohatchilar va diplomatlardan qolgan esdaliklar, kundaliklar ham foydalidir.

Ular orasida ingliz, nemis va frantsuz sayohatchilari tomonidan yozilgan asarlar mavjud bo‘lib, ular Turkistonning o‘ziga xosligi va Rossiya siyosatining natijalari haqida muqobil qarashlarni taqdim etadi.

Xulosa. 1867–1917-yillar oralig‘idagi Turkiston tarixini o‘rganishda tarixiy manbalar mazmunan boy va turlicha xarakterga ega bo‘lib, ular mintaqadagi siyosiy boshqaruv tizimi, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, shuningdek, milliy uyg‘onish jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmiy qonunchilik hujjatlari, statistik hisobotlar, zamonaviy matbuot nashrlari, mahalliy va xorijiy mualliflar asarlari, shuningdek, jadid ziyolilarining publitsistik va badiiy ijodi orqali Rossiya imperiyasi hukmronligining ko‘p qirrali ta’sirini tahlil qilish mumkin.

Ushbu tarixiy manbalarni tizimli o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish Turkiston o‘lkasining mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur anglash, mustaqillik sari intilish yo‘lidagi tarixiy asoslarni ochib berish uchun zarur ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu bois mazkur davr manbalarini tahliliy yondashuv asosida tadqiq qilish bugungi tarixshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

REFERENCES

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –T.: Ma’naviyat, 2002.
2. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. –T.: 2003.
4. Rahimov O. XIX asrda O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan yevropalik sayohatchilar //Muarrix. – 2024. – T. 2. – №. 1.
5. Usarov U., Mamatmurodov O. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Samarqand viloyatining qishloq xo‘jaligi tarixining manbashunosligi //acta nuuz. – 2025. – T. 1. – №. 1.3. 1. – c. 29-31.